

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA ZAMONAVIY METODLARNING O'RNI

Bo'ranova Dilorom Berdimuratovna

**Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanidagi 46-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7597364>

Davlatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar faqatgina xalq manfaati, baxt-saodati uchun xizmat qilayotganinig yaqqol guvohi bo'lib turibmiz. Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklanayotgan bir davrda, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni vatanparvarlik, yurtparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Bu jarayon davomida bola shaxsi shakllanishiga turli omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, biologik omil tarafdorlari bola tug'ma imkoniyatlar bilan tug'iladi, uning xayoti takdir-tole bilan belgilanadi deb hisoblaydilar. Biologik omilga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Ular muhit rolini inson rivojlanishida ustun sanaydilar. Ularning fikricha tug'ma imkoniyat bilan tug'ilgan bola muhit ta'sirida shakllanadi, bunda ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rni beqiyos. Bola dastlabki bilimlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida olar ekan, bunda boshlang'ich ta'lim asosiy bo'g'in bo'lib, bu jarayonni amalga oshiruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Darhaqiqat, har bir maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri bo'lib turgan ayni vaqtda, har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali, o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab kilinadi. Buning uchun har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifalari bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi".

Zero, o'qituvchi mahoratli, o'z kasbiga sadoqatli, izlanuvchan, barcha shaxsiy sifatlarga ega bo'lsagina ta'lim-tarbiya jarayonini uyg'un va to'g'ri tashkil qila oladi. Bunda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash maqsadga erishish uchun asosiy rol o'ynaydi. SHu o'rinda ta'lim metodlari qanday tushuncha degan savol tug'ulishi tabiiy. Ta'lim metodi tushunchasiga bir qancha tadqiqotchi olimlar o'zlarining munosabatlarini bildirganlar va turli tariflar keltirganlar, ular orasidan qisqa, aniq, tugal fikr sifatida V.I.Zagvyazinsning fikrlarini keltirishimiz mumkin: „Ta'lim metodi-zamonaviy darajada o'quv tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning bogg'lik faoliyat usullaridir.

Ta'lim metodini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishdan avval u pedagogning ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi va uning samaradorligi oldindan ko'zlangan maqsad orqali belgilanadi. Bu metodni ta'limga joriy etganda ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligi mumkin, chunki, ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchi faoliyati asosida shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi. Mukammal ta'lim metodi mavjud emas, shu bois darslarda turli metodlardan foydalaniladi va uning xususiyati soddadan murakkabga tomon xarakterlanadi. CHunki tanlangan ta'lim metodi o'kuvchilarning yoshiga, shuningdek pisixologik xususiyatlariga mos bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari ta'lim metodi bir kancha mezonlarga asoslangan holda chunonchi, didaktik maqsad, talim mazmuni, o'quvchilarning

o'quv ko'nikmalarini agallash, rivojlanish darajasi o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajalari asosida tanlanadi.

Jumladan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy, ma'naviy - axloqiy barkamolligini ta'minlash, ta'lim va tarbiyaning, shuningdek, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ularni rivojlantirish, mustaqil ijodiy tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishda ta'lim - tarbiya jarayonining barcha jabhalariga shu jumladan, mazkur jarayonda ijodiy muhitni yaratish lozimligi haqida xulosa kelib chiqadi.

Ta'lim - tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsiga individual va umumiy yondashishi orqali o'quvchilarning tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, erkin va mustaqil fikr yurita oladigan kasb - hunarli, ona Vatanga bo'lgan sadoqat va milliy qadryatlarga yuksak hurmat ruhida tarbiyalangan, Vatan, jamiyat, oila oldidagi burchi va vazifalarni chuqur anglaydigan har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Ushbu vazifalarni hal etishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim muassasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quydagilar sanab o'tiladi.

1. Innovatsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy - pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish.
2. Ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish.
3. Innovatsiya faoliyatini tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlari, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tuzilishini shakllantirish.

O'quvchilarni ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlariga va innovatsiya faoliyatiga tayyorlash o'ziga xos pedagogik muammo bo'lib uning asosida o'qituvchining o'z - o'zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsiya jarayonlarining ahamiyatini anglashi, o'zgarishlar va yangiliklarni mazmun - mohiyatini tushunishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'qituvchining pedagogik mahoratida ta'lim metodlarining o'rni beqiyos, chunki ta'lim metodi ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi shuningdek o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini aks ettiradi. O'z kasbining ustasi, mahoratli pedagoggina samarali ta'lim metodini tanlay oladi va undan foydalanib barkamol avlodni tarbiyalaydi.

References:

1. Mirziyoev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. - T.: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
2. Musaev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. . - T.: SHarq, 2010. -252 b.
3. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati. // Boshlang'ich ta'lim. 2000. -№1. -8-10-b.
4. Qodirova K. Nutq o'stirishni baholash uslubi // Sog'lom avlod uchun. 1998. -№ 4-5. - 6-7-b.

5. Sariev SH. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirish. // Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy kasbiy ta'lim muammolari: Respublika ilmiy anjumani materiallari. –Guliston: –2008. –298b.